

**O'zbekiston RESPUBLIKASI OLIY va O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSTETI

FIZIKA –MATEMATIKA fakulteti

„ Kasb- hunar ta'limi” kafedrası

**5142000-„Mehnat ta'limi “ yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini
olish uchun**

NARZIYEVA INTIZOR IKROMOVNANING

**„ 7-SINF MEHNAT TA'LIMI DARSLARINI USLUBIY ISHLANMALARI
“ MAVZUSIDA**

BITIRUV MALAKAVI Y ISHI

**Ilmiy rahbar: dost. A.T. Vohidov
:„_____“ _____ 2012 y**

**BMI „Kasb-hunar ta'limi” kafedrasining 2012 yil „_____“
_____№ _____ sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va imoyaga ruxsat berildi.**

**Kafedra mudiri: prof. I.G'.Karimov
„_____“ _____ 2012 y**

**Taqrizchi: dost.N.M. Murodov
„_____“ _____ 2012 y**

**„Himoya qilishga ruxsat berildi”
Fakultet dekani prof. SH.M.Mirzayev
:„_____“ _____ 2012 y**

Buxoro-2012

Mundarija.

Kirish

I.bob.Ta'lim to'g'risidagi qonun va adabiyotlar tahlili

1.1.Ta'lim to'g'risidagi qonun tahlili

1.2.Mavzuga doir metodik adabiyotlar tahlili

I.bob bo'yicha xulosalar

II.bob.7-sinf mehnat ta'limi darslarini uslubiy ishlanmasi

2.1.7-sinflar mehnat ta'limi fanining „Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi” yo'nalishining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi tahlili

2.2. 7-sinf „Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi” yo'nalishining mavzular bo'yicha dars ishlanmalari

II.bob bo'yicha xulosalar

Xotima

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa
ta'limdan ajratib bo'lmaydi---
bu sharqna qarash
sharqona hayot falsafasi

I.A.Karimov

Kirish.

Respublikamizda „Ta'lim to'risida“ gi qonun, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ asosida uzluksiz ta'lim tizimining joriy qilinishi ta'lim sohasida tub islohtlarni amalgam oshirishni taqozo etadi. Uzluksiz ta'limda ta'lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini oshirishga bag'ishlangan juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Islohotlarnin maqsadi—ta'lim – tarbiya natijasida o'quvchi yoshlarga puxta bilim berish, ularning ko'nikma va malakalarini hamda shaxsiy fazilatlarini yuksak darajada shakllantirishdan iborat.

„Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ga aytilganidek shaxsni tarbiyalash ta'lim xodimlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. „Ya'ni, o'quvchilarni o'qitishga yangicha yondashish, o'quvchilarni o'z kasbiga e'tibotini kuchaytirib, ta'lim oluvchilarga nisbatan o'ta talabchan bo'lishni taqozo etadi“.

Darhaqiqat, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm- fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Bu esao'z navbatida ta'lim jarayoniga boshqa nazar bilan qarashni talab etadi. Xususan ta'lim tizimimiz uchun yangi pag'ona bo'lish, o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limi tizimida bu muammo o'z dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi. Duyoga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini ko'ruvchi va yuksaltiruvchi ishchi mutaxasis kadrlarni tayyorlash respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va masuliyatli vazifadir. Hozirgi bunday ulkan vazifani sharaf bilan bajaradigan zamonaviy va jahonning eng ilg'or ta'lim texnologiyalari bilan qurollangan pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kundan- kunga ortib bormoqda. 2001- yilning 4 oktyabr kuni Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 400- sonli qarori bu muammoni hal qilishga qaratilgan bo'lib, respublikamizdagi o'rta umum ta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb- hunar ta'lim muassasalari pedagoglarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha qilinishi zarur bo'lgan chora tadbirlar ko'lamini belgilab berdi. Jmiyatda sodir bo'layotgan bugungi yangiliklar hamda iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimiga xususan o'rta umum ta'lim muassasalarida ta'limga boshqacha yondashishni talab qiladi. Shunday ekan o'rta umum ta'lim maktablari ta'limi standartlarini ishlab chiqmasdan turib jahon bozoriga chiqa oladigan kasbiy mohirlik darajasi yuqori bo'lgan, raqobatbardosh mutaxasilarni tayyorlab bo'lmaydi. Shunday ekan ilm- fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faoliyatini keng jalb etish, ularning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratishga doir kompleks chora tadbirlarni ishlab chiqish shu kabi qarorlar yoshlarni benihoyat ruhlantirib yanada ko'proq intilishlariga undaydi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda amalgam oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'zining nazariy metodologik asoslarini prezidentimiz ISLOM ABDUG'ANIYVICH KARIMOV o'z asarlarida ayniqsa u kishining „Barkamol avlod O'zbekiston kelajagining poydevori“ ma'ruzasida hamda „Ta'lim to'g'risidagi qonun“ va „Kadrlar tayyorlash milli dasturi“da o'z aksini topdi. Bu hujjatlarda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda ularni mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida ta'limning mustaqil turi sifatida tavsiflanadi. Bularning barchasi bugungi kunda yurgizilayotgan siyosat uchun yoki birovlarga ko'z- ko'z qilish uchungina ema balki, pedagog mehnatini nihoyatda muhim va murakkabligini ularning ishtimiy zarurligini qonuniy e'tirof etishning yorqin namunasi.

Hozirgi zamon o'rta maxsus kasb-hunar kolleji pedagogi mohir pedagog tarbiyachi, o'z fanining mohir ustasi, ilmiy haqiqatni yosh avlodga a'lo darajada tushuntiruvchi o'z mehnati

bilan jamiyatimiz axloqi talablariga boshqalarga singdiruvchi hamdir. Bu esa o'z navbatida uning kasbiy mahorati, umumiy saviyasini mutassil takomillashtirish uchun sharoit yaratishni talab qiladi. O'qituvchi mehnatini tejamli tashkil etishning ta'lim tarbiyada muvoffaqiyat garovidir. O'ylab tuzilgan dars jadvaliko'rgazmali qurollarning yetariligi o'qituvchilarni ta'lim tarbiyaga dahldor bo'lmagan ishlardan ozod qilish ular kuchini va vaqtini tejaydi, hamda mehnatining samarasini yanada oshiradi..

Hozirgi kunda pedagogic adabiyotlar ta'lim muammolariga oid ilmiy tadqiqot ishlarida o'qitishning noan'anaviy usullari, ya'ni pedagogic texnologiyalariga oid ko'plab fikrlarga duch kelamiz. Ularning mazmun mohiyatini tushunib yetish uchun ayrim tushunchalarni tahlil qilib, ta'lim jarayonini tashkil qilishga oid samarali usullaridan foydalana bilishimiz kerak. Chunki bugungi kunda ta'limni samaradorligini oshirish turli an'anaviy va noan'anaviy usullariga bevosita bog'liq. Bundan tashqari, fan- texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga yetkazilishining dolzarbligi o'qituvchilardan yangi uslubiy tavsiyalardan foydalanishlarini taqozo etadi.

Har bir inson hamda mamlakat taqdiri va istiqboli –belgilashda yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash muhimdir. Yurtboshimiz alohida urg'u berib ko'rsatadilark, „Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga erishishimizga jamiyatimizning yangilanishiga hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalgam oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimiz samarasi taqdiri- bularning barchasi, avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligi- barchamiz anglab yetmoqdamiz. Yuqori malakali mutaxassis tayyorlash muammosi darajasi eng avvalo, ularni o'qitib, tarbiyalovchi savyasi bilan belgilanadi”.

Mening fikrimcha ta'lim- tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda. O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun avvalo murabiylar o'zi anashunday bilimga ega bo'lishi kerak. Bu tarixiy fikrlar „ Ta'lim to'g'risidagi qonun “da ham o'z ifodasini topgan. Qonunning 16- moddasida „Kadrlar malakasini oshirish va ko'nikmalarni chuqurlashtirish, ularni qayta tayyorlash deb nomlanadi.

Ularning maqsadi: kadrlar malakasini oshirish va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi. Ko'ryapmizki pedagog hodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash pedagogika fanlar muhim vazifasi sifatida qo'yilmoqda. Chunonchi bu masalalar dolzarbligi „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da yangi pedagogic texnologiyalarni pedagogic amaliyotga joriy etishni taminlash maqsadida ilmiy tadqiqotlar olib boorish, bu borada eksperimental maydonchani tashkil etish vazifasi qo'yilgan. Unda „ ta'lim berishni ilg'or pedagogic texnologiyalarni ,zamonaviy o'quv usuliy majmualarni yaratish va tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash” vazifasi qo'yilgan. Shu bilan birga „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalgam oshirishda ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish „professional kuchli ilg'or texnologiya va uskunalarini, shuningdek murakab fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imittorlarni ishlab chiqish, yaratish va amaliy o'zlashtirib olish” fanlar muhim vazifasi sifatida qo'yilgan. Bu shunchaki qayd qilib qo'yiladigan masala emas. Balki xalq ta'limini hamma bo'g'inarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog va rahbarlarga juda katta masuliyat yuklaydi. Pedagogika fani namoyandalarini dolzarb masalalarni ishlab chiqishga undaydi. „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta'limlar ta'sirchan yangi usullarni faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini taminlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarni bajaruvchi ilmiy pedagogik muassasalar faoliyatini jonlantirish zarur.

Bitiruv malakaviy ish mavzuining dolzarbligi: Mehnat ta'limi faning 7-sinflar uchun dars ishlanmalarini tayyorlash. Qo'llanma darsliklar kamligining oldinini olish.

Tadqiqot obyektini va predmetini: Mehnat ta'limi fanining 7-sinf darslik va qo'llanmalari taqvimiy rejalarini dars metodlarini o'rganish.

Ishning maqsadi va vazifalari: 7- sinf „Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi “yo'nalishidan dars ishlanmalari mazmunnomalarini tuzib chiqish.

Tadqiqot usuli va uslubiyoti: Nazariy, uslubiy ma'lumotlarni tahlil qilish, 7- sinflarda mehnat ta'limi darslarini tahlil qilish.

Olingan asosiy natijalar: 7- sinflar bo'yicha mukamal dars ishlanmalarini tayyorlash.

Natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati: Hozirgacha tarqoq bo'lgan dars ishlanmalarini umumlashtirib majmua, qo'llanma tayyorlash.

Tadqiqot etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi qo'llanish sohasi. Xulosa va takliflar: Tayyorlangan uslubiy qo'llanma 7- sinflarda o'rta maktablarda mehnat ta'limi darslarida qo'llaniladi.

Ishning hajmi va tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi 2 ta bob 4ta rejadani iborat hamda xulosalar kiritilgan. I bobda asosan 2ta reja asosida yoritib berilgan. II bobida 2ta reja asosida keng yoritib berilgan.

I.bob. Ta'lim to'g'risidagi qonun va adabiyotlar tahlili.

1.1. Ta'lim to'g'risidagi qonun tahlili.

Kadrlar tayyorlash uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. U har birimizdan astoydil, betinim, to'xtovsiz, izchil mehnatni talab etadi. Shunday ekan komil insonni tarbiyalashda eng avvalo, ta'lim tizimini rivojlantirish zarurdir. Shu bilan birga ta'lim hamda tarbiya doimo yonma-yon turadi. Abdulla avloniyning „Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot yo najot – yo halokat yo saodiy – yo falokat masalasidir“ degan fikrini ko'p mushohada qilamiz. Buyuk marifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir. Chunki ta'lim tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin ta'lim- tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni tafakurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Mana shuning uchun ham bugungi kunda biz bu masalaga jidiy e'tibor bermoqdamiz. Shuning uchun ham bu maqsadga qaratilgan loyihalar jamoatchiligimiz diqqat e'tibori markazida o'tmoqda, tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda. Lo'nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanish, hayotimizning taraqqiyoti va istiqbli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri- bularning barchasi, avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chamcham bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz. Shu bois mamlakatimizning istiqbol yo'lidagi birlinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizning tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim tarbiya tizimini takomillashtirish uning milliy zaminini mustahkamlash zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadida katta ahamiyat berib kelinmoqda. Birinchi navbatda meyoriy- huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni 1997- yil 29 avgustda qabul qilindi. Ushbu qonun 5 bob 34ta moddadan iborat. Shulardan ayrimlari bilan tanishib o'tamiz.

1 –modda. Ushbu qonunning maqsadi. Ushbu qonun fuqarolarga ta'lim tarbiya berish, kasb- hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqni ta'minlashga qaratilgan.

2- modda. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari. Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonunda hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi ta'lim sohasidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belilangan bo'lsa xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3 – modda. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari. Ta'lim O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy taraqqiyoti sohasidagi ustuvor deb e'lon qilinadi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'lim uzluksizligi va izchiligi;
- umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limini yo'nalishining akademik liseyda yoki kasb – hunar kollejida o'qishning tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'limi standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimi bo'lishni va istedodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish;

4- modda. Bilim olish huquqi. Jinsi, tili, irqi, yoshi, milliy mansubligi, etiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqish, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi. Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim lishni tashkil etish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb- hunar o'rgatish;
- barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlariga ega bo'lishi;
- oilada yoki o'zo mustaqil ravishda bilim fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida ksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi. Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

5- modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi. Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Pedagogik xodimlarni oily o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tastiqlagan Nizomga muvofiq tanlov asosida amalgam oshiriladi. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishga yo'l qo'yilmaydi.

7- modda. Davlat ta'lim standartlari. Bu moddada davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb- hunar va oily ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

9- modda. Ta'lim tizimi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalgam oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishiva rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy- pedagogik muassasalar;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

10- modda. Ta'lim turlari. O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalgam oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;

- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim;

Maktabgacha ta'lim. Bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishda tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadni ko'zlaydi. Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mul shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

- boshlang'ich ta'lim(I-IV sinflar)
- umumiy o'rta ta'lim(I-IX sinflar)

Boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning I- sinfiga bolalar 6,7 yoshdan qabul qilinadi. Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobolyati, amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, daslabki tarzda kasbga yo'naltirishda va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi. Bolalarning qobiliyati, istedodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

O'rta maxsus va kasb- hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik liseyda yoki kasb hunar kolejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega. Akademik liseylar va kasb -hunar kolllari egallangan kasb- hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom etirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi beradi. Akademik lisey o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir. Kasb hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan 3-yillik o'rta kasb hunar o'quv yurtidir.

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni taminlaydi.

Oliy malumotli mutaxassislar oily o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oily maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqisqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oily ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oily ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oily ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oily o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalarida (aspirantura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kabi bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

Maktabdan tashqari ta'lim. Bolalar va o'mirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish ularning bo'sh vaqt va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat bilashmalari shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxlar madaniy estetik, ilmiy texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

1.2. Mavzuga oid medtodik adbiyotlar tahlili.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Barkamol avlod yili“ davlat dasturi to'g'risida qarori.

Joriy yilning 27 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisi bo'lib o'tdi. Bunda prezidentimiz Islom Karimov nutq so'zladilar. Prezident ma'ruzalarida „mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish ustuvor maqsadimizdir“ mavzusida ma'ruza qildilar. Bu ma'ruza bir qancha gazetalarda chop etilib, jumladan „Xalq so'zi“ning 28-30 yanvar sonlarida chop etildi. Bu ma'ruza bilan biz yoshlar tanishib chiqdik. Ma'ruzada Prezidentimiz Islom Karimov 2010- yilni „Barkamol avlod yili“ ga bag'ishlab bir qancha maqsadlarni e'tirof etdila;

Biz farzandlarimizni nafaqat jismoniy va ma'naviy, sog'lom o'sishi balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib XXI asr talablarga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib, voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora – tadbirlarni amalga oshirish maqsadida „Barkamol avlod yili“ davlat dasturi ishlab chiqildi. Unda quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilandi.

-bolalar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga ularni barkamol rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy – huquqiy bazani takomillashtirish amaldagi qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarga zamon talablariga mos o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

„Sog'lom ona – sog'lom bola“ dasturini izchil amalga oshirish asosida sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi chora - tadbirlarni yanada kuchaytirish, onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, profilaktikaga asoslangan sog'likni saqlash tizimini ustuvor rivojlantirish, tibbiy xizmat moddiy – texnika bazasini mustahkamlash sog'lom bolalar tug'ilishi va ularni tarbiyalash bilan bog'liq masalalar yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish hamda maslahat ishlarini kuchaytirish;

Yayyorlanayotgan mutaxassislariga real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi mavjud talabga a'lohida e'tibor qaratgan holda o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sohasidagi moddiy texnika bazani yanada mustahkamlash, undan oqilona va samarali foydalanishni va o'quv – uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish;

Ta'lim jarayoniga yangi axborot – kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimediyaviy vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida kasb- hunar kollejlari, liseylari va oiliy o'quv yurtlarida oqitish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv – laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylar mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha samarali tizimiy yanada rivojlantirish;

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli va keng farmatli telekommunikatsiya aloqa vositalari hamda internet tizimini yanada rivojlantirish, ularni har bir oila hayotiga joriy etish va keng o'zlashtirish;

Yosh avlodni jismonan barkamol etib tarbiyalash, bolalar rivojlantirish sohasida, yoshlarni ayniqsa qishloq qizlarini sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yangi sport majmualarini, stadionlar va inshootlarni qurish, ularni zamonaviy sport anjomlari va johozlari bilan ta'minlash, yuqori malakali ustoz va murabbiylar bilan mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni, izchil kuchaytirish;

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishning muhim yo'nalishi, aholi va o'rta sinf mulkdorlari daromadlarini shakllantirish asosi bo'lgan kichik biznes ham xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni, bu sohada mavjud muammolarni hal etish, yoshlar avvalombor, kasb – hunar kollejlari va oiliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ayniqsa, qishloq joylarida tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish uchun sharoit yaratish;

Ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faolliyatga keng jalb etish, ularning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratishga doir kompleks chora- tadbirlarni ishlab chiqish

Yosh oilalarga g'amxo'rlik qilish ishlarni kuchaytirish, barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash borasida

jamiyatning muhim bo'gini bo'lgan sog'lom va mustahkam oilani shakllantirish uchun zarur shart – sharoitlarni yaratish;

Yoshlar o'rtasida so'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan va tahdidlardan himoya qilishga doir kompleks chora- tadbirlarni amalga oshirish maqsadlariko'zda tutilgan. Bunday shart –sharoitlarni yaratilishi albatta yoshlarga katta e'tibor qaratilayotganlidandir. Shunday ekan bunday shart- sharoitlardan biz yoshlar oqilona va o'z vaqtida foydalanishimiz talab etiladi.

Bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarining etnopedagogik tarbiyasi.[1] Barno Djo'rayeva maqolasi „xalq ta'limi“ jurnali.

„Tarbiya“ tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Biroq umuman olganda, eng muhim ikki asosiy ta'rif ajratiladi. Birinchisi- bu alohida bir insonni uning shaxsini ochib berish va layoqati hamda iqtidorini rivojlantirish yo'li orqali takomillashtirish. Ikkinchisi kishini u mansub bo'lgan ijtimoiy guruh talablari va mezonlariga muvofiq shakllantirish. Bir-biriga muvofiq bo'lgan madaniy va tarixiy shart-sharoitlar zamini jiddiy farqlarning sababi bo'lib hisoblanadi. Bularning keyingisi aynan etnologiya bilan tushuntiriladi: tarbiya uning uchun eng muhim, zaruriy, universal-ijtimoiy fenomen hisoblanadi. Har bir jamiyatning madaniy o'ziga xosligi, odam va olam to'g'risidagi o'zining xususiy tasavurlarga va mos ravishda, arbiya to'g'risidagi alohida qarashlariga egaligi muhim omil hisoblanadi.

O'zbek xalq amaliy- bezak san'ati asosida tarbiyalash o'zining shaxsda diqqat – e'tiborlibo'lish, tartiblilik, talabchanlik, intizomlilik, faollik, mehnatsevarlik, jamoadoshlik hissi singari ma'lum bir sifatlarini shakllantirishdek maqsadiga ega. Mashg'ulotlarda xalq amaliy- bezak san'ati vositasida tarbiyalash ma'lum bir ijtimoiy –iqtisodiy hodisalar, milliy muhit, o'ziga xos madaniyast, ana turmush va hayot tarsi ta'sirida amalga oshiriladi.

O'zbek pedagog- olimlarining bir qator ilmiy tadqiqotlarida „milliy shaxs“, „milliy tarbiya“, „tarbiyaning etnopsixologik asosari“ tushunchalarining psixologik pedagogik mohiyati va o'rni belgilab berilgan. Xususan, o'zbek ma'rifatparvarlari, mutafakirlari va jamoat arboblari ilmiy izlanishlarining tahlili asosida milliy tarbiya to'g'risidagi qarashlarning bir butun tizimi ishlab chiqilgan va shaxs milliy tarbiyasining tizimli mantiqiy modeli yaratilgan; Shaxs milliy tarbiyasi haqida to'g'ri tassavurga ega bo'lgan talabalar tayyorlashning mezonlari va pedagogik shartlari ishlab chiqilgan; Talabalarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirish ustida ishlash jarayonida etnopsixologiya va etnopedagogikaning o'z ta'lim mazmunidagi o'rni ochib berilgan bunda xalq amaliy- bezak san'atini turli ko'rinishlari bilan estetik ibtido sanoat texnologiyasi va qo'l mehnatini birlashtiruvchi mashg'ulotlar muhim o'rin tutishi mumkin. Ular talabalarni qiziqtirishga jiddiy tarzda mashg'ul qilishga, ularning ichki dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga estetik qarashlarini shakllantirish va badiiy didlarini rivojlantirishga qodirdir. Ilk naqshni chizib badiiy ishlov berish uchun qo'llariga asbob –uskunalarni ular ekan ular foydali va go'zal buyumlar yaratishning qiziqarli jarayonini ishtirokchisiga aylanadilar.

O'zbek xalq amaliy –bezak san'ati tadbiriq etilgan etnopedagogik ta'lim va tarbiya shaxsning yaxlit, uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Shaxsning kamolotga erishishi yo'nalishi uning insonparvarlik, mehr oqibat, go'zallik to'g'risidagi tasavurlari bilan belgilanadi. Ma'lumki, xalq amaliy- bezak san'ati asarlarini his qila bilish shaxsni dunyo qarashi ijtimoiy yetukligi his qilish madaniyati singari yaxlit rivojlanish darajasiga bog'liq ammo ma'lum bir estetik va qisman badiiy rivojlanish san'atini aynan bir xil tushunishning istesnosiz sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda bu maqolada ya'ni „bo'lajak mehnat ta'lim o'qituvchilarining etnopedagogik tarbiyasi“da asosan ta'lim talabalar faoliyatining badiiy tarbiyaviy ta'limiy rivojlantiruvchi singari eng muhim elementlarni o'z ichiga olgan. Yana talabalarga materiallar va ularga badiiy texnologik ishlov berish mustaqil tanlash imkonini beradi. Bunday topshiriqlar bo'lg'usi mehnat o'qituvchisining kasbiy bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirishda katta ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

I. Karimov, K. Davlatov, A. Varobiyelarning „Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlashda nazariyasi va metodikasi“ kitobi (Toshkent, O'qituvchi nashriyoti)

BU qo'llanmada fanning maqsadlari o'z oldiga qo'ygan vazifalari kengyoritilib berilgan. Maktab o'quvchilariga beriadigan nazariy hamda amaliy ta'lim va tarbiyaning birligi ta'minlansa ularning xalq xo'jaligi talablariga muvofiq mehnat va kasbkorlik tayyorgarligi samara beradi. Bu muammo jumhuriyat xalq ta'limi sistemasida o'quvchilarni hozir sanoat, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning ko'rinishi, transportning xizmat ko'rsatish sohasining asoslari bilan tanishtirishga ularni mehnatga muhabbat va mehnatkashlarga hurmat hislarini shakllantirishga ta'lim va ijtimoiy foydali ishlar jarayoni, mehnat o'quvi va malakalarini tarkib toptirishga, ongli ravishda kasb tanlash va dastlabki kasbkorlik tayyorgarligini uyg'otish kabi aniq fikrlar bu kitobda yoritib berilgan. Bu kitob menga mavzuni yoritishga juda katta yordam berdi.

XXI asr boshlariga kelib axbarot texnologiyalari jamiyatning shu qadar muhim bo'lagi va tarkibiy qismiga aylandiki mamlakatning barcha sohalari jadal suratlar bilan rivojlanishi bvosita unga bog'liq bo'lib qoldi. Shu sababli har bir davlat bugungi kunda jamiyatni axbarotlashtirish masalasiga jiddiy e'tibor bermoqda.

Respublikamizda jahonning rivojlangan mamlakatlari kabi kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda.

Darhaqiqat F.To'rabekov „Mehnat ta'limi fanini o'qitishga axborot texnologiyalarini joriy etish“ maqolasi „Xalq ta'limi“ jurnalida №4 2009- yilda keng yoritib berilgan .

Unda mehnat ta'limi fanlarini o'qitish jarayonini axborotlashtirish, mehnat ta'limi fanlarini o'qitishda o'quv uslubiy ishlarini qayta tashkil etish; O'qituvchi va uning rolini o'zgartirishga bo'lgan talablarni ortirishi; O'rganuvchi shaxsning va uning individuallashtirish xususiyati rolining ortishi ; ta'lim muassasa rolining o'zgarishi va uning o'quvchi yoshlar tarkibi joylashgan joyiga ta'siri; axborot resurslarining mumkin bo'lgan hajmining to'satdan ortishi axborot xizmati ko'rsatishining ahamiyatining o'sishi ayniqsa ilmiy va ta'limiy harakatdagi kabilarni keng yoritib berilgan. Yana shuni takidlab o'tish lozimki bu maqolada mehnat ta'limi fanlarini o'qitish jarayonini takomillashtiruvchi, uning sifat va samaradorligini oshiruvchi, o'rgatuvchi bilimlarni tasvirlash vositasi sifatida foydalanish;

Mehnat ta'limi fanlarini o'qitishda o'quv biluv faoliyat madaniyatini shakllantirish maqsadida obyektiv borliqni bilim vositasida foydalanish.

Ekspiriment (laboratoriya va namoyish qiluvchi) natijalarni ishlash jarayonini avtomatlashtirish va o'quv, namoyish qiluvchi jihozlarni boshqarish maqsadida foydalanish;

Mehnat ta'limi fanlarini o'qitishda oquv-tarbiya jarayoni , ta'lim muassasasi tuzimini boshqarish maqsadida foydalanish;

Ilg'or pedagogic texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish vositasi sifatida foydalanish ham aniq qilib yoritib berilgan ;


Jumladan „mehnat ta'limi darslarida fanlararo boglanishlardan foydalanish“ maqolasiga nazar tashlasak. Bu maqola I. Karimov tomonidan „Xalq ta'limi“ 6 sonli jurnalida 2009-yilda chop etilgan

O'zbekiston Respublikasining „ Ta'lim to'g'risida“ gi qonuni asosida mamlakatimizdagi ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya ishlari tubdan yaxshilanmoqda. Bunda ta'lim –tarbiya berish usullarini takomillashtirish , yangilarini izlab topish va ulardan samarali foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa ta'limda fanlararo bog'lanishlardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega.

Jumladan bu maqolada ham mehnat ta'limi darslarida fanlararo bog'lanishlardan foydalanish juda ham yaxshi yoritib berilgan. Masalan mehnat ta'limidagi fanlararo bog'lanishlarni ikki xil ko'ronishga , ya'ni ichki va tashqi fanlararo bog'lanishga ajratilgan. Xullas mehnat ta'limi darslarida ichki bog'lanish deganda , shu sohaga oid fanlardagi mavzularning o'zaro bog'lanishi, aloqadorliklari tushunilsa, tashqi bog'lanish esa mehnat ta'limi darslarini boshqa fanlar bilan bo'ladigan bog'lanishlarni bildiradi.

Umuman olganda, mehnat ta'limi darslarini maktabda o'tiladigan barcha fanlar bilan bog'lash mumkin. Amalda esa mehnat ta'limi darslari ko'proq rasm , chizmachilik, tasviriy san'at, fizika , matematika , jismoniy tarbiya, onatili va adabiyot, kimyo, biologiya, geografiya,

electron hisoblash mashilari va informatika asoslari, tarix kabi fanlar bilan bog'lanadi. Yana maqolada mehnat ta'limi darslarida boshqa fanlarga oid tushuncha va ma'lumotlardan foydalanish, ko'rsatmalar va uslubiy tavsiyalar berilgan .



Mehnat ta'limi darslarini o'zaro va boshqa fanlar bilan bog'lab o'tish imkoniyatlari ham keng yoritib berilgan.Ulardan bir nechtasini misol qilib keltirsam.

Mehnat va rasm.Mehnat darslarida rasmlarning tutgan o'rni nihoyatda kattadir, chunki birorta detal yoki buyumni yasashdan avval uning rasmini yoki eskizi chizoladi va o'quvchilarga ko'rsatiladi.O'quvchilar anashu rasmlar orqali o'sha detal yoki buyum to'g'risida tasavur hosil qiladilar .O'qituvchi o'quvchilarga mehnat ta'limi darslarida buyumlarning texnik rasmi, eskizi, yaqol tasviri, rasmlarni chizishdagi ish ketma-ketligi, shuningdek ranglarni farqlash, ularni mutanosib joylashtirish va shu kabilar haqida ham ma'lumot berib borish kerak.

Mehnat va chizmachilik.Mehnat ta'limi daslarini chizmachiliksiz tasavur etib bo'lmaydi,mehnat darslarida chizmachilik ham o'z o'rnida juda zarurdir.Chunki har qanday detalni yasash uning chizmasini o'qishdan boshlanadi.Bu jarayonda o'quvchida aniq buyum va uning qismlari to'g'risida tasavur hosil bo'ladi.Binobarin ,mehnat darslaridagi muhim ko'rgazmalardan biri bo'lgan texnologik va instruksion yo'l –yo'riqlik xaritalarni chizish va ulardan foydalanish ham chizmalardan qanday bog'lanishga bog'liqdir.Demak, o'quvchilarning amaliy faoliyati va tayyorlanadigan buyumlarning sifati ko'p jihatdan ularning hizmachilikka oid bilim va ko'nikmalarga ham bog'liq ekan.Biroq, chizmachilik 7-sinfdan boshlab o'qitiladi.Shu sababli mehnat ta'limi o'qituvchisi 5- sinfdan boshlab o'quvchilarga chizma, o'lcham, o'q chiziqlari, kesim, qirqim, chizmachilik asbob – uskunolari va ulardan foydalanish haqida ma'lumotlar berib borishi zarur.Bunda o'quvchilarning oldingi sinflarda shu sohaga oid olgan bilimlarini hisobga olgan holda ish ko'rilishi lozim.

Mehnat va matematika.Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarga to'g'ri burchak, perpendikulyar va parallel chiziqlar to'g'ri burchakli uchburchak va to'g'ri burchakli to'rtburchak kabi turli geometrik shakllarni hosil qilishga oid tushunchalar zarur bo'ladi.bulardan tashqari, o'quvchilar mehnat darslarida simmetriya o'qi, shakllarni simmetrik joylashtirish,aylanauni bo'laklarga bo'lish ,urinmalar o'tkazish chizg'ich, go'nya,trasporter ,burchak o'lchagich, sirkul kabi turli asboblardayordamida detal yoki buyumlar burchaklarni, yon markazlarni, to'g'ri va egri chiziqli boshqa o'lchamlarni aniqlashlariga to'g'ri keladi. Shuningdek berilgan buyumlarning uzunligi ,eni va balandligi,yuzasi, hajmi,kabi turli o'lchamlarni aniqlash, qancha materiallar vaqt sarf bo'lishini hisoblash kabi ishlarni bajarishda esa arifmetikaga oid bilimlar zarurdir.

Mehnat va fizika.Mehnat ta'limi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda turli materiallarga ishlov berishdan oldin ularning fizikaviy xususiyatlarini bilish zarur.Ma'lumki modaning tashqi ta'sir natijasida o'zining kimyoviy tarkibini saqlab qolish xususiyati uning fizik xossalari deyiladi.Bunday xossalarga materiallarning rangi, zichligi,eruvchanligi,issiqlikdan kengayishi, issiqlik sig'imi,issiqlikva elektr o'tkazuvchanligi,magnitlanishi kabi xossalari kiradi.Masalan,metal qizdirilganda ,undan issiqlik yoki elektr toki o'tganda, metalga magnet ta'sir etirilganda uning tarkibi o'zgarmaydi.Metalning fizik xossalari ularni bir biridan farqlashda va ishlatishda juda qo'l keladi.Metall o'zidan issiqlikni qancha tez o'tkazsa,u shunchalik tez va tekis qiziydi.Hamda soviydi.Shu sababli metallardan buyumlar yasashda va ularga ishlov berish chog'ida ularning issiqlikdan o'lchamlari o'zgarishi mumkinligini hisobga olish zarurligi qayd etiladi.Bulardan tashqari mehnat darslarida materiallardan dastlabki asboblardayoki dastgohlar yordamida turli buyumlar yasashda ,asboblarni sozlashda harakat turlari ,kuch, bosim, quvvat ,energiya, ish, ishqalanish kabi fizik tushunchalardan keng foydalanish zarur.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, mehnat a'limining bunday ketma-ketlikda o'qitilishi bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib,ular bir birini mustahkamlab va to'ldirib boradi.

F.EQayumova ,F.I.Nurmatova,M.S.Arzimurodovalar tomondan ishlab chiqilgan bo'lib,u „kasb –hunar ta'limi “2- sonli jurnalida 2007-yilda chop etilgan.Bu maqola „O'qitishning noan'anaviy usuli “deb nomlanadi.Unda asosan o'qitishning noan'anaviy usullari

qo'llanilganda o'quvchilar asosan mustaqil fikrlashga va mustaqil ta'lim olishga yo'naltirilgan. Bunda o'qituvchining faoliyati ta'lim oluvchilarga nafaqat mavzunitushuntiribberish, balki ular uchun topshiriqlar tayyorlash ,mustaqil ta'lim olish jarayonini nazorat qilish va ularning yakuniy bilimini baholashdan iborat bo'ladi. Shu maqolada „Tikuvchilik texnologiyasi“ fanini o'rganishda o'qitishning noan'anaviy usuli - „Charxpalak“ metodini qo'llash haqida to'talib o'tsam, to'g'rirog' I, nazariy mashg'ulotlar ishlanmasini keltirib o'tamiz.

Nazariy dars rejasi

Mavzu: Ayyollarning milliy ko'ylaklari va ularning turlari haqidagi bilimlarni shakllantirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarda mas'uliyat hissini tarbiyalash.

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarda xotin - qizlarning milliy ko'ylaklari va ularning turlari haqidagi bilimlarini shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarni kasbga qiziqitirish, ularning estetik didini rivojlantirish.

Darsda qo'llaniladigan metodlar: ma'ruza , charxpalak.

Ta'lim vositalari: kodoskop, andoza, o'lchagich, masshtabli lineykasi, qog'oz daftar, ruchka, qalam, gazlamalar bo'laklari.

Darsning turi: nazariy bilim berish.

Darsning borishi

Tashkiliy qism: 5 minut

Yangi mavzuni bayon etish - 30 daqiqa

1. Ayollar milliy ko'ylaklarini tikishda qo'llaniladigan gazlama turlari.

2. Ayollar milliy ko'ylaklari tavsifi.

3. Ayollar milliy ko'ylaklarining detallari

4. Ayollar milliy ko'ylaklari uchungazlama sarfi miqdorini aniqlash

5. Gazlamalarda uchraydigan nuqsonlar.

6. Gazlamalardagi gullar va tuklar yo'nalishini aniqlash

„Charxpalak metodini tuzilmasi“:

1. O'quvchilarni guruhlariga ajratish va joylashtirish

2. Savollarni ishlab chiqish

3. O'quvchilarga savollar berish va javobni baholash.

4. O'quvchilarning „o'qituvchi“ lar yonidan o'tish va ularning savollariga javob berish.

5. Baholarni umumlashtirish va e'lon qilish.

„Charxpalak“ metodi qo'llanilganda sinfdagi o'quvchilar 2ta kichik guruhga ajratiladi. Birinchi guruh o'quvchilar , ikkinchisi esa o'qituvchilar roliga ishtiroketishadi. O'quvchilar roliga ishtirok etganlar ko'kragiga 1,2,3,4,5,6, raqamlari yozilgan nishon taqishadi va aylana shaklida qo'yilgan stollar atrofida davra qurib o'tirishadi. Uning ichki tomonidan 6 nafar „o'qituvchi“ joy oladi. Bunda har bir o'quvchi stol atrofida soat strelkasi yo'nalishida birin - ketin o'qituvchilar yonidan o'tadi va ularning savollariga javob beradi. Ushbu bosqichda ham ta'lim jarayoni yuqoridagi tartibda davom etadi. Stolning ichki tomonida o'tirgan o'qituvchilar o'quvchilarning bergan javoblarini baholaydilar va uni baholash varaqasiga belgilab boradi. Shu tariqa barcha o'quvchilarning bilimi baholanadi. O'qituvchi esa o'quvchilar ishiga aralashmay mashg'ulotning borishini chetdan kuzatadi.

Yakuniy qism. O'quvchilarning olgan baholari e'lon qilinib yutuq va kamchiliklari tahlil etiladi. Uyga vazifa beriladi.

O'qituvchi ta'lim oluvchilarning bilimlarini o'zlashtirish darajalarini aniqlash maqsadida dars yakunida odamning 3-xil variantdagi (qosh, ko'z, og'iz, burun, aks etirilgan) rasmini doskaga osadi.

1. rasmda insonning g'amgin , xafa holati , 2- rasmda o'rtacha quvnoqlikdagi holati, 3- rasmda esa juda xursand kayfiyatdagi holati aks etiriladi. O'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida 1- rasm yoniga „Tushunmadim“ , 2- rasm yoniga

„O’rtacha tushundim”, 3- rasmyoniga esa „Juda yaxshi tushundim” deb yozib qo’yadi. Har bir o’quvchi dars yakunida rasmlardan birini tanlaydi. Ularning qaysi rasmni tanlashga qarab, mavzu bo’yicha egalagan bilim va ko’nikmalar haqida xulosa chiqariladi. Bizningcha, nafaqat nazariy balki amaliy mashg’ulotlarda ham o’qitishning noan’anviy usullaridan keng foydalanish zarur.

Bu maqolada agar o’qituvchi o’zi tanlagan metodining samaradorligi haqida xulosa chiqarish imkoniga ega bo’ladi. Masalan o’quvchilar 1-holatda tasvirlangan rasmni ko’proq tanlashgan bo’lishsa, o’qituvchi dars berish dars metodini o’zgartirishi lozim. 2- holatda tasvirlangan rasmni ko’p o’quvchilar tanlashsa o’qituvchi o’rganilgan mavzusini yana takrorlash lozim. Agar o’quvchilar 3- holatda tasvirlangan rasmni ko’proq tanlashgan bo’lishsa, bu hol o’qituvchi qo’llayotgan metodining samarali ekanidan dalolat beradi.

Ko’rinib turibdiki bu maqolada noan’anviy usullardan foydalanish juda yaxshi natija berishini ochib bergan.

I bobning xulosasi.

Xulosa qilib aytganda davlatimiz tomonidan ta’lim tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan bir ancha qarorlari ta’lim berilayotgan yuksak e’tibor namunasidir. BMI ning asosan birinchi bobida ikkita reja asosida yoritib berishga harakat qildim. Unda ta’lim to’g’risidagi qonun tahlili mavzuga oid metodik adabiyotlar hamda BMI dolzarbligi maqsad va vazifalarini keng yoritib berishga harakat qildim. 7- sinf mehnat ta’limi darslarini uslubiy ishlanmalarini yaratishga turli xil metodik adabiyotlardan foydalandim.

Respublikamizda „Ta’lim to’g’risidagi “qonun „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida uzluksiz ta’lim tizimining joriy qilinish ta’lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Uzluksiz ta’limda ta’lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini oshirishga bag’ishlangan juda ko’plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Islohotlarning maqsad-tarbiya natijasida o’quvchi yoshlarga puxta bilim berish, ularning ko’nikma va malakalari hamda shaxsiy fazilatlarini yuksak darajada shakllantirishda iborat.

II. bob. 7- sinf mehnat ta’limi darslarini uslubiy ishlanmasi.

2.1.7- sinflar mehnat ta’limi fanining „Gazlamaga ishlov berish “yo’nalishining davlat ta’lim standarti va o’quv dasturi tahlili.

Mehnat ta’limi bo’yicha Davlat Ta’lim standartida umumiy o’rta ta’lim maktablarida mehnat ta’limi va kasb tanlashga yo’naltirishning tayanch mazmuni hamda maktabni bitirgan o’quvchilarning mehnat ta’limi fanidan tayyorgarlik darajasi ifodalanadi. Ushbu standart umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun mehnat ta’limi fanidan o’quv dasturi, o’quv metodik qo’llanma darslik va boshqa rasmiy me’yoriy materiallarni ishlab chiqish, o’quv tarbiya jarayonini tashkil etish hamda ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun zarur bo’lgan me’yoriy hujjatlar. Mehnat ta’limi standarti umumiy o’rta ta’lim maktablarida mehnat ta’limining tayanch mavzusi hamda bitiruvchilarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasini belgilovchi me’yoriy majmuasi bo’lib u davlatning ta’lim sohasidagi me’yoriy hujjati hisoblanadi.

Davlat ta’lim standartida belgilab qo’yilgan ko’rsatkichga erishish davlat tomonidan talab qilinadi va o’z navbatida bu ko’rsatkichlarga erishish uchun zarur bo’lgan ta’lim olish imkoniyatlari ta’minlanadi.

O’quvchilar ta’minlanishi zarur bo’lgan mehnat ta’limi va kasblarga yo’naltirish ta’limi mazmuni umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quvchilarga beriladigan mehnat ta’limi mazmuni negizini ifodalaydi. Ushbu ta’lim mazmuni har bir hududda mavjud bo’lgan ishlab chiqarish

sohalari mazmuniga mos holda o'quv dasturi va darsliklarni yaratishda asosiy mezon vazifasini bajaradi va uni amalgam joriy etish uchun xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga savyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni shakllari, vositalarini usullarini uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmuning o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarida (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalgam oshiriladi.

Davlat ta'lim standarti o'zmohiyatiga ko'ra o'quv dasurlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi. Hamda eng asosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'y sunishdan qat'iy nazar ta'lim muassasalari majburiydir.

O'quvchilar mehnat ta'limiga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egalashlari shart:

- Politeknik duyoqarashga ega bo'lish ;
- Umum mehnat bilim, ko'nikma va malakalarni egalagan bo'lishi;
- Kasblar haqida umumiy tasavurga ega bo'lish;
- Qishloq xo'jaligi va maishiy sahalaridagi ishlab chiqarish asoslari haqida bilim va dastlabki ko'nikmalarga ega bo'lish;
- Materiallarga ega bo'lish ;
- Muayyan mexanizm, moslama va mashinalarning chizmalarni tayorlash ko'nikmasiga ega bo'lish ;
- Kundalik tutishda zarur bo'ladigan bichish- tikish ishlarini bajara olish;
- Pazandachilik mahoratini egalash;
- O'zbekiston Respublikasidagi kasb-hunarlar haqida bilimga ega bo'lish;
- Uy –ro'zg'or elektr asboblardan va gazdan xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda foydalana olish;

-Elektro texnik mehnat ko'nikmalariga ega bo'lish;

-Ayrim kasblar bo'yicha dastlabki mehnat ko'nikmalarini egalash;

Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonlari oldiga qo'yilgan quyidagi vazifalarni bajarilishini nazorat qilish ushbu ta'lim standarti vositasida amalgam oshiriladi.

Mehnati ta'limi fanining o'quv dasturi tahlili.

Materialshunoslik.

Bilim. Gazlamalar haqida umumiy ma'lumotlarni, tabiiy va sun'iy tolalarning xususiyatlari, fizik-mexanik, giginik, texnologik tuzilishi va farqlarini, gazlamani bichishga tayorlashni, bichilgan gazlamalarni biriktirishni, yoqa, yeng va cho'tak o'ymalariga ishlov berish usullarini, bezaklar turlarini bilish.

Konikma. Bichilgan gazlamalarni biriktirishni, yoqa, yeng va cho'tak o'ymalariga ishlov berish usullarini, bezaklar turlarini, tabiiy, sintetik va suniiy tolalardan tayorlangan ustki, maxsus, ichki kiyimlarni tikishni, gazlama bichishga tayorlash ishlarini bajara olish.

Malaka. Tabiiy, sun'iy va sintetik tolalardan tayorlangan ustki, maxsus, ichki kiyimlarni tikish, gazlamani bichishga tayorlash.

Asbob –uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanish.

Bilim. Gazlamalarni bichish –tikish uchun qo'llaniladigan asbob –uskunalar va moslamalar hamda xavfsizlik qoidalarini bilish.

Ko'nikma. Gazlamalarni bichish –tikish uchun qo'llaniladigan asbob –uskunalar va moslamalar hamda xavfsizlik qoidalarini oddiy va maxsus tikuv mashinalarining tuzilishi, ularni ishga tayorlash va ishlatish, ta'mirlash.

Malaka. Oddiy va maxsus tikuv mashinalarining tuzilishi, ularni ishga tayorlash va ishlatish, ta'mirlay olish.

Mashina, mexanizm, stanoklar va ulardan foydalanish.

Bilim. Elektr uzatmali tikuv mashinalarining tuzilishi, ishlatilishida xavfsizlik texnikasi qoidalariva sanitariya –gigiyena qoidalari bilish. Mashinada bajariladigan ishlarning texnik shartlari. Mashinada bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalardan foydalanishni bilish (tepkilar, bukib tikish moslamalari, taxlama va burmalarni bukib tikish moslamalari va hokazo) Tikuv mashinalarini tozalash va moylash. Mashinadagi nuqsonlar ichki kiyim choklardan namunalardan: parallelzig-zak qator, mayday va yirik baxyaqator tikishni bilish.

Ko'nikma. Elektr uzatmali tikuv mashinalarining tuzilishi, ishlatilishida xavfsizlik texnikasi qoidalariva sanitariya –gigiyena qoidalari qo'lay olish. Mashinada bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalardan foydalana olish

Tikuv mashinalarini tozalash va moylash. Mashinadagi nuqsonlar ichki kiyim choklardan namunalardan: parallelzig-zak qator, mayday va yirik baxyaqator tika olish.

Malaka. Elektr uzatmali tikuv mashinalaridan. Tikuv mashinalarini tozalash va moylash, mashinadagi kichik nuqsonlarni bartaraf etish.

Mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi.

Bilim. Gazlamalardan tayorlanadigan buyumlarga ishlov berish, asboblari va moslamalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalarini gazlamaga ishlov berish jarayonida materiallarni, elektr quvvatini tejimli sarflash, elektr tikuv mashinalarida ishlashni bilish.

Ko'nikma. Gazlamadan tayorlanadigan buyumlarga ishlov berishda elektr tikuv mashinalaridan foydalana olish

Malaka. Elektr tikuv mashinalarida turli buyumlar tikish.

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi.

Bilim. Tikuvchilik, to'quvchilik hamda gilamchilik sohasidagi kasblar haqida ma'lumotni, gazlamalardan milliy liboslar tayorlashni, gazlamalarni bo'yash va gul bosish usullarini, gazlama chiqindilaridan buyumlar tayorlash usullarini bilish.

Ko'nikma. Gazlamalardan milliy liboslar tayorlashni, gazlamalarni bo'yash va gul bosish usullarini, gazlama chiqindilaridan buyumlar tayorlash usullarini, gazlamada ishlov berishda milliy tikuvchilik, to'quvchilik, gilamchilik sohasidagi ish usullarini bajara olish.

Malaka. Gazlamaga ishlov berish milliy tikuvchilik gilamchilik sohasidagi ish usullarini bajarish

Xulosa qilib aytganda 7- sinflar bo'yicha maxsus tayorgarlik o'quv dasturlari mazmuni bilan chuqur tanishdim. Ulardan foydalanishni o'rgandim, calendar mavzuli reja, ifodalovchilig' ma mavzulireja o'quv dasturidagi aniq mavzularga doir dars rejasini tuzish va shu mavzular bo'yicha konspekt tuzishni o'rgandim. 7- sinf mehnat ta'limi fanining o'quv dasturijuda ham keng yoritilgan, tushunarli aniq qilib berilgan. Bilim, ko'nikma va malakalar aniq va alohida –alohida qilib yoritib berilgan.

2.2 7-sinf „Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi“ yo'nalishining mavzular bo'yicha dars ishlanmalari

„Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi“ taxminiy mavzuiiy rejasini 7- sinflar uchun jami 68 soat bo'ladi.

1-jadval Texnologik xarita

1.

Materialshunoslik

1. Texnika xavfsizligi qoidalarini umumiy tushuntirish ximyoviy tolalardan tayorlangan gazlamalar

2

2. Suniiy va sintetik gazlamalarning xosalariva ularga qo'yiladigan talablar

2

3. Amaliy mashg'ulot. Ximiyaviy tolalarning xususiyatlarini o'rganish. Tashqi ko'rinishga qarab cho'zilishi, g'ijimlanishi, suv o'tkazishi, issiqdan saqlash xossalari.

2

2

Asbob uskunalar va ularning ishlatish

1. Mehnat gigiyenasi haqida asosiy tushuncha. Kiyim haqida umumiy ma'lumot. Kiyimlar assortimenti va razmeri

2

2. Kiyim tikishning asosiy bosqichlari. Gazlamani bichishga tayorlash maxsus ish bajaradigan tikuv mashinalari

2

3. Qo'l ishlari. Ish o'rnini tashkil qilish. Ish vaziyati va tayorgarlik ishlari qo'l choklaridan qaviq qator tikish

2

4. Qo'lda bajariladigan ishlarning texnik shartlari. Qo'lda bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalar (igna, angishvona, iplar, smli lenta va hokazolar)

2

5. Ekskursiya. Tikuv fabrikasi yoki tikuv sexlariga

2

3.

Mashina, mexanizm, stanoklar va moslamalar

8 soat

1. Elektr privodli tikuv mashinalarining tuzilishi, ishlatilishida xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya – gigiyena qoidalari.

2

2. Mashinada bajariladigan ishlarning texnik shartlari. Mashinada bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalar (tepkilar, bukib tikish moslamalari taxlama va burmalari)

2

Amaliy mashg'ulot. Tikuv mashinalarini tozalash va moylash. Mashinadagi nuqsonlar, ichki kiyim choklaridan namunalar tikish.

2

Amaliy mashg'ulot. Parallel zig-zag qator, mayday va yirik baxya qator tikish

2

4.

Tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish

18 soat

1. Gavdadan o'lchov olish va yozish

2

2. Hisoblash formulasi. Ko'ylak asosini chizmasini chizish

2

3. Ko'ylakni modellashtirish. Yoqa o'yindisini modellashtirish

2

4. O'z razmerida ko'ylak andozasini chizish

2

5. Ko'ylak bichish

2

6. Bichish bo'laklarini ikish. Birinchi premerka

2

7. Yoqa o'yindilarini ishlash

2

8. Yeng o'mizi o'yindilarini ishlash

2

9. Ko'ylak etagini tikish

2

5.

Xalq hunarmandchilik texnologiyasi

1. Milliy kiyimlar, buyumlar haqida umumiy ma'lumot, „Quroq“ usulini tarixi, kerakli ish qurollari xavfsizlik texnika qoidalari

2

2. Tikiladigan, „Quroq“ buyumiga eskiz chizish va shablonlar (andozalar) tayorlash

2

3. Gazlamalarni ajratish, turlanishi sifatini aniqlash va shablonlarni qirqib tayorlash

1

4. Qirqimlarni „yo'l-yo'l“ shaklida tikish va shu asosda ish tikish

1

5. „Uycha“ usuli orqali „choynak yopg'ichi“ tayorlash paxta shaklini ishlab chiqarish

1

6. „Parket“ shaklida yelpig'ich tayorlash

1

7. „Kvadrat“ shaklida yostiq jilti yoki bolish tikish

1

8. „Erkin“ shaklida qirqimlarni ulash

1

9. Eskis asosida shablonlar tayorlash va bolalar ko'ylagi uchun gazlamalar tayorlash

1

10. Tayorlangan shakllarni shablon asosida tikish

1

11. Tikilgan kvadratni bir-biriga ulash orqali ko'rpa shaklini chiqarish

1

12. Tayorlangan ko'rpaga astar bosish va tikish

1

13. Mag'izlangan ko'rpaga astar bosish va tikish qaviq ishlari

Jami

68 soat

7-sinf, „Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi“ yo'nalishining mavzular bo'yicha dars ishlanmalaridan namunalar.

Mavzu Elektr pivoqli tikuv mashinalarining tuzilishi, ishlatishda xavfsizlik texnikasi qoidalari, sanitariya-gigiyena qoidalari.

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy: O'quvchilarga elektr pivoqli tikuv mashinalarining tuzilishi hamda ularni ishlatishda xavfsizlik texnikasi qoidalari haqida tushuncha berish, tikuv mashinasini ishga tayorlash va undan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

b) tarbiyaviy: Tikuv mashinasida o'tirganda o'quvchi qanday kiyinish hamda sanitariya – gigiyena qoidalari o'rgatish

v) rivojlantiruvchi: O'quvchilarda elektr pivoqli tikuv mashinasida mustaqil va ravon chok tikishni, bilim va ko'nikmalarini yanada shakllantirish.

Darsning jihozi: Tikuv mashinalari, plakatlar, tarqatma materiallar.

Darsning shakli: nazariy va amaliy

Dars metodi: tushuntirish, ko'rgazmali

Darsning borishi

Tashkiliy qism.

1. Salomlashish. O'quvchilarni darsga tayorgarligini nazorat qilish

- 2.Navbatchi orqali davomatni aniqlash
- 3.O'tilgan mavzuni so'rashva o'quvchilarni baholash
- 4.Yangi mavzuga zamin hozirlash

Asosiy qism.

Reja

- 1.Elektir privodli tikuv mashinalarining tuzilishi haqida ma'lumot berish
- 2.Mashinadagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish
- 3.Elektir privodli tikuv mashinalarni ishlatishda xavfsizlik texnikasi qoidalari.
- 4.Sanitariya gigiyena qoidalari

Yakuniy qism

- 1.Mavzuni mustahkamlash uchun savol javobda qatnashgan o'quvchilarni baholash va baholarini e'lon qilish.
- 2.Uyga vazifa berish

Elektir privodli tikuv mashinalarining afzalliklari.

Uy mashinalariga qo'l mashinasi, oyoq mashinasi va elektir mashinasi kiradi. Elektir mashinasi elektir dvigatel yordamida harakatlanadi. Mashinalar bajaradigan ishiga qarab klasslarga bo'linadi. Mashinaning klassi sonli raqam bilan belgilanadi. Sonli raqam yonida bosh harf turadi. Bu harflar mashinaning guruhini bildiradi. Masalan: M.I Kalinin nomli „Podolsk“ mexanika zavodi quyidagi mashinalarni ishlab chiqaradi. 22-Akl PMZ o'rtacha og'irlikdagi gazlamalarni tikishda 3500 ob/min tezlik bilan ishlaydi. Ya'ni 1 daqiqa ichida 3500 baxya tikadi.

22-Bkl PMZ mashinasi yupqa gazlamalarni tikishga mo'ljallangan. Bu mashinaga mokimexanizm qo'shimcha detal kiritiladi. Bu detalustki ipning tarangligini oshiradi. 22-Bkl PMZ mashinasiga gazlamaning chetini qirqib beradigan pichoq o'rnatilgan. Bu mashina ham tikadi ham qirqadi.

22-Ykl PMZ mashinasi gazlamalarning chetini shakldor qilib qirqadi. Iplari sochilib ketmaydi.

22-Akl PMZ mashinasi ishlab chiqarish korxonasi keng ishlatiladi

Elektir mashinaning tuzilishi

22-Akl PMZ mashinasi 2 qismdan: mashinani korpusini ko'tarib turuvchi stol va mashinaning korpusidan iborat. Mashina qopqog'ining tagida boltlar bilan biriktirilgan elektir motor o'rnatilgan. Motor bilan oyoq tepkisi metal sterjen orqali biriktirilgan. Stol tagining o'ng tomonidan ishga tushirish knopkasi bor. Mashinaning yangi ichida valkulachok, ip tortgich, harakatni boshqa vallarga o'tkazuvchi detallar joylashgan. Mashinaning boshiga igna mexanizmi, tepki mexanizmi va boshqa detallar o'rnatilgan.

Darsni mustahkamlash

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Mashinaning klassi nima bilan belgilanadi ?

- a) sonli raqam bilan
- b) harflar bilan
- s) sonli raqam va harflar bilan
- d) to'g'ri javob yo'q

2. 22-Akl PMZ mashinasi necha qismdan iborat?

- a) 4 qismdan
- b) 2 qismdan
- s) 3 qismdan
- d) 5 qismdan

3. Mashinaning boshiga qanday detallar o'rnatilgan?

- a) igna mexanizmi, tepki mexanizmi, ip tortgich
- b) tepki mexanizmi, baxya rostlagichi, platforma
- s) ip o'ragich, maxovik, igna mexanizmi
- d) ip tartgich, tepkisini ko'taruvchi richak

Uyga vazifa :O'tilgan darslarni o'qib kelish.

2.Mavzu:Qo'lda bajariladigan ishlarning texnik shartlari.Qo'lda bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalar(igna angishvona iplar va hokazolar)

Darsning maqsadi:

a)ta'limiy: Qo'lda bajariladigan ishlar uchun qanday asbob va moslamalar kerakligini hamda ularning texnik shartlari bilan tanishtirish va o'rgatish

b)tarbiyaviy:Qo'lda bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalardan foydalanilganda o'quvchilarni estetik ruhida tarbiyalash

v)rivojlantiruvchi:O'quvchilarni shu mavzu yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishva rivojlantirish.

Drasning jihozi: igna ,qaychi, angishvona, iplar, sm li lenta,moniken va boshqalar

Dras uslubi:nazariy og'zaki

Dars metodi:tushunirish ko'rgazmali

Darsning borishi

Tashkiliy qism

1.Salomlashish.O'quvchilarni darsga tayorgarligini nazorat qilish.

2O'tilgan mavzu yuzasida savol javob o'tkazishva o'quvchilarni baholash

3Yangi mavzuga zamin hozirlash

Asosiy qism

Reja

1Qo'lda bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalar

2Ignalar o'lchamlari va vazifasi

Yangi mavzu bayoni

Qo'l ishlariga :ignalar, angishvona,qaychi,santimetr lenta, moslamalarga esa:moniken , andoza, pichoqli halqa, qoziqcha,to'g'nogich va boshqalarkiradi.Ishning sifati,ishchining ish unumi,ish obiyati va kayfiyati ko'p jihatdan asbob hamda moslamalarni to'g'ri tanlashiga bog'liq.Qo'l ignalari o'tkir ,elastic,sinmaydigan, silliq teshigidan ip bemalol o'tadigan bo'lishi lozim

2 jadval Ignalar o'lchamlari va vazifasi.

Igna nomeri

Diametri mm

Uzunligi, mm

Vazifasi.Quyidagilardan kiyim tikish

1

2

3

4

5

6

7

8

9

10

11

12

0,6

0,7

0,7

0,8

0,8

0,9

0,9

1,0

1,0

1,2

1,6
1,8
35
30
40
30
40
35
45
40
50
50
75
80

Yengil ip gazlama, ipak va jun gazlamadan

Yengil ip gazlama, ipak va jun gazlamadan shuningdek o'rtacha qalinlikdagi gazlamalar :triko, yengil tramagazlamalar va hokazo

O'rtacha qalinlikdagi gazlamalar:triko, yengil trama gazlamalar va hokazolar

Qalin gazlamalar:Bobrik ,sukno va boshqalardan ,qop ,pagon va boshqa tikiladi

Ignalar tikilayotgan buyumning xiliga gazlamaga va bajarilayotgan ishga qarab tanlanadi .Ishlatiladigan ipning nomeri ham ignalar va gazlamalarga qarab tanlanadi.Yupqa ip gazlamalardan (marazet,batist,to'r, volta va hokazolardan)kiyim tikishda 50-60 nomerli iplar ishlatiladi.

Juda yupqa shoyi gazlamalar ,masalan shofon ,krepjorjit,67,75 nomerli shoyi iplar va 80 nomerlipaxta iplar bilan yupqa va yengil shoyi gazlamalar ,chunki krepdoshin ,krepsatin 60-80 nomerli iplar bilan jun ko'ylaklar 50- 60 nomerli iplar bilan tikiladi.Angishvona ignani gazlamaga qadash paytida barmoqni ignadan asrash uchun izmat qiladi. U o'ng qo'lning o'rta barmog'iga taqiladi.

Angishvonalar tubli va tubsiz bo'ladi .Ayol va bolalar kiyimini tikishda tubli angishvona ustki kiyimlarni yikishda esa, tubsiz angishvonadan foydalaniladi.

Tikuvchilikda foydalaniladigan qaychilar nomerli bo'ladi.Qaychining nomeri bajaradigan operatsiyaga va bichiladigan gazlamaga qarab tanlanadi .Qaychilar g'ijirlamay ochilib yopilishi tig'I boshidan oxirigacha birdek yaxshi qirqishi lozim.

1- chizma.

Mavzuni mustahkamlash.

Mavzuga doir test savollar:

1.To'g'nog'ich qachon ishlatiladi?

- a)ko'klash operatsiyasini tezlatish uchun
- b)ko'klash operatsiyasini osanlashtirish uchun
- s)sifatini yaxshilash uchun
- d)hamma javoblar to'g'ri

2. Detallarni bir-biriga vaqtincha qaviqqator bilan ko'lashda ipning rangi qanday tanlanadi?

- a) asosiy detail bilan bir xil
- b) asosiy detal rangiga qaramaydi
- s) asosiy detal rangidan ancha farq qiladi
- d) to'g'ri javob yo'q

3. Qo'lda bajariladigan ishlaning asosiy usullari ko'rsatilgan qatorni toping ?

- a) ip uchini tugish
- b) igna va angishvona bilan ishlash
- s) ignaga ip o'tkazish
- d) hamma javob to'g'ri

4. 10- nomerli qo'l ignalar qanday gazlamalar uchun ishlatiladi?

- a) yengil ip gazlamalar uchun
- b) ipak va jun gazlamalar
- s) qalin gazlamalar
- d) o'rtacha qalinlikdagi gazlamalar

5. Qanday angishvonalar bo'ladi?

- a) tubli va tubsiz
- b) qalin va mayin
- s) faqat tubli bo'ladi
- d) katta va kichik

3. Mavzu: Milliy kiyimlar haqida ma'lumot., Quroq usulining tarixi'' va kerakli ish qurollar , xavfsizlik texnika qoidalari.

Darsning maqsadi

a) ta'limiy maqsadi: Milliy kiyimlar haqida „, Quroq usulining tarixi'' va kerakli ish qurollar haqida ma'lumot berish

b) tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarga dastlab milliy kiyimlar haqida ma'lumot berish so'ngra quroq usuli haqida ma'lumot berish bilan birga texnika xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish va estetik ruhida tarbiyalash

v) rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarga dars davomida milliy kiyimlar va quroq usulining tarixi va kerakli ish qurollar bilan tanishtirish texnika xavfsizlik qoidalari o'rgatishda hosil bo'ladigan ko'nikma va malakalarni shakllantirish

Dars jihozlari: Milliy kiyimlardan namunalari, rasmlar, plakatlar, xalq hunarmandchiligi to'g'risidagi rasmlar, albomlar

Dars shakli: nazariy

Dars metodi: og'zaki, suhbat, ko'rgazmali metodi, savol javob metodi.

Dars tipi: an'anaviy va noan'anaviy

Darsning borishi

Tashkiliy qism

1. Salomlashish. O'quvchilarni darsga tayorgarligini nazorat qilish.
2. Davomatni aniqlash
3. O'tilgan mavzu yuzasidan savol javob o'tkazish va o'quvchilarni baholash
4. Yangi mavzuga zamin hozirlash

Asosiy qism

Reja

1. Milliy kiyimlar haqida umumiy ma'lumot
2. „, Quroq usulining tarixi'' haqida tushuncha
3. Kerakli ish qurollari va texnika xavfsizlik qoidalari bilan tanishish

Yangi mavzu bayoni

O'zbekcha kiyimning ko'p asirlik tarixi bor . Unda xalqimizning o'tmishi tarixi , iqlim sharoiti , turmush tarsi ko'zguga aks etgandek ifoda topgan. Antik dunyo davrida (mil .av, IX

asrdan milodning IV asrgacha)ayollar ko'ylagi yunoncha Xitoyga o'xshash bo'lib, old va ort bo'laklar etagining yon burchaklari o'zaro birlashtirilib dirapirovka ko'rinishi hosil bo'lib turadi.Grek o'rta asrlar davrida(V-VIII asrlar)ayollar gavadaga juda yopishib turadigan tunukasimon bichimli ko'ylak va yenglari uzun tunukasimon ust kiyimlar mavjud bo'lgan.Bunda kiyim yorqin guli va ser naqsh shoyi gazlamalardan tikilgan.Markaziy Osiyo davrida(IX-XIV)ayollar ikkita ko'ylak kiyishardi:ich ko'ylak gavadaga juda yopishib turadigan tunukasimon bichimli hamda uzun, tor yengli ust ko'ylak gavadaga yopishib turadigan, beldan past qismi tugmasiz ochiq turadi.

Paranji yopinish XVIII asrda odat bo'ldi.Paranji arabcha „Faroji“ erkaklar ust kiyimi to'n so'zidan kelib chiqqan.To'n asta-sekin boshga yopilib, gavadani ham yashirib turishga xizmat qiladigan ,ort tomonidan pastki qismi bir- biriga chatilgan ikkita uzun soxta yengi bor ayollar kiyimi bo'lib qolgan.

XIX asrdan ayollar kiyimi hamma yoshdagilar uchun bichimi bir xilda tunukasimon ,dekarativ yechimlari nihoyatda ko'pxil bo'lgani ko'zga tashlanadi.1920- yilda o'zbek ayollar kiyimi zamonga yangicha turmush tarziga zamonaviy moddaga muvofiq rivojlanishda davom etdi.O'zbek milliy ko'ylaklarida ishlatiladigan gazlamalar turi ulardagi rang boyligi va naqshlar yechimi butunlay moda yonalishiga qarab hal qilinadi.Lekin an'anaviy xonatlas hamisha bir xilda mashhur bo'lib keladi

Milliy kiyimlarda ishlatiladigan gazlamalar turi bular asosan atlas, adras,xonatlas,alocha va boshqa matolar kiradi.Milliy kiyimlarga yana:do'ppi ,aroqchinlar kiradi.Milliy kashtachilik uzoq tarixga ega.Bu tur amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan bo'lib,u xalqning o'z turmushni go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan.O'zbek kashtachiligi iqlim tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb –hunarlarini birgalikda rivoj topgan.

Do'ppi- O'zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyimi.O'zbekiston Toshkent chust, buxoro, Samarqand,Boysun,Shahrisabz do'ppilari bor.

Quloh-konussimon bosh kiyim .Uni asosan keksalar kiyadi.Toshkentda sharsimon do'ppilar kunda xayol, bosma, iroqi chok usullarida tikiladi.


Arog'chin-sharsimon do'ppisini asosan keksalar kiyadi.Tus do'ppi –keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi,ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi.Tus do'ppilarining birgina klassik variantining o'zida 8ta yuveler chok uslubi qo'laniladi.Masalan zanjircha,to'g'ri chok,chita, kugura,eslatma.

Quroq usulu haqida ma'lumot.


Quroq bu -1ta buyumda rangi va fakturasi turlicha bo'lgan gazlama qoldiqlarini birlashtirishdir.Bu usul bilan quroqlisumkachalar,yostiq jildlari ,ko'rpa,divan va stol uchun g'iloqlar ko'rpachalar , g'ilo gilamchalar shuningdek kiyimlar uchun bezak va to'ldiruvchi detallar tayorlash mumkin. Quroq texnologiyasida istagan gazlamadan ham rangi ham avval ishlatilgan ,gazlamadan foydalanish nazarda tutiladi.Paxta tolali gazlama qoldiqlari ishlash uchun qulay hisoblanadi.Quroq texnikasida hamma geometrik naqshlarni 3ta guruhga ajratish mumkin.

1.Uchburchak 2.Amerikacha kvadrat 3.spiralsimon


Amerikacha kvadrat –bu kvadratni bajarishda shablon tariqasida oddiy qog'oz chizg'ichni ishlatish mumkin.Uning kengligi kvadratdan hamma rasmlarda mos bo'ladi.



2- chizma.Amerikancha kvadrat usuli.



3- chizma.Uchburchak usuli.



4-chizma .Kvadrat ichida kvadrat usuli .

Umuman olganda milliy kiyimlar va quroq usulida ishlatiladigan kerakli ish qurollari bularga nina,ip qaychi shablon (qog'oz) turli xildagi kashta iplar gazlamalarning bo'laklari, materiallar, tikuv mashinasi va hokazolar kiradi.Ulardan foydalanishda texnika xavfsizliqoidalariga rioya qilgan holda ishni bajarish lozim.Avvalombor qaychi va ignadan foydalanishda ehtiyotlik bilan foydalanish tikuv mashinasida o'tirganda boshga ro'mol bog'langan holda o'tirish, gazlamalarni qirqishda ehtoyot bilan qirqish va shuningdek ulardan unumli foydalanish zarur.

Darsni yakuni

- 1.Yangi mavzuni mustahkamlash
- 2.Uyga vazifa berish
3. Ish o'rmini yig'ishtirish

Dars ishlanmalarni noan'anaviy usulda tuzish .

Shu mavzuni endi noan'anaviy usulda keng yoritib bermoqchiman. Masalan darsni boshlagandan so'ng tashkiliy qismlarni o'tkazib bo'lgach, o'tgan darsni so'raladi.O'tgan dars yuzasidan o'quvchilarni baholaymiz.So'ngra yangi mavzu bayoni bo'ladi.Darsni o'tish mobaynida noan'anaviy usullardan foydalandim.Masalan buni bittasini misol qilib ko'rsataman.Bu o'yinning nomi „7 x 7“ o'yini deb nomlanai.Bunda sinf o'quvchilarini 2 guruhga bo'lib, ular o'z guruhlariga nom qo'yadilar. Masalan:

1 guruh:Atlas

2guruh:Baxmal

Bu o'yinning nomini 7 x 7 deb nomlanishi mehnat ta'limi darslarida fanlararo bog'lanishlardan foydalanish imkonini beradi. Chunki bu o'yinda turli xil fanlardan ham savollar tuziladi.Sababi mehnat ta'limi darslari boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq.Masalan rasm va chizmachilik, fizika, matematika, ona tili ,adabiyot, kimyo, biologiya va boshqa fanlar bilan bog'langan.

Bu o'yinda 7 ta raqam ishtirok etadi.7ta raqam ortida 7ta fandan savollar qo'yilgan bo'ladi.Shunda o'quvchilar o'zlari tanlagan raqam ostidagi savollarga javob berishadi.To'g'ri javob bergan o'quvchiga „rag'bat“kartochkasi beriladi.Noto'g'ri javob bergan o'quvchi esa „jarima“ kartochkasi beriladi.Shu tariqa 2 ta guruh bellashadi va o'yin oxirida „rag'bat“, „jarima“ kartochkalari hisoblanib g'olib kamanda aniqlanadi.

Masalan:Atlas va Baxmal guruhleri bellashadi .

Birinchi bo'lib „Atlas“ guruhi o'yini boshlab beradi.Atlas guruhidan bir o'quvchi chiqib 7 ta raqamdan birini tanlaydi.Masalan 2 raqamni tanladi.2 raqam ostidagi fanning nomi adabiyot fanidir.Shunda 2ta guruhdan bittadan o'quvchilar chiqib adabiyot fanini mehnat faniga bog'lab , savollariga javob berishadi.Masalan :mehnatga oid kim ko'p maqolalar aytish va aytilgan maqolar qayta takrorlanmasligi inobatga olinadi.Kim ko'p maqol aytsa rag'bat beriladi.Agar javob bera olmasa jarima oladi.Endi 2 guruhdan ya'ni Baxmal guruhidan o'quvchi chiqib raqam tanlaydi.Masalan 5 raqamini .5raqami ostida fizika fani qo'yilgan. Bu fani ham mehnat fani bilan bog'liqligi savollarda ochib beriladi.Shu tariqa o'yin davom etiriladi .O'yin so'ngida to'plangan rag'bat va jarima kartochkalari hisoblanib o'quvchilar baholanadi.

ASosan darslarda bunday o'yinlardan ya'ni noan'anaviy usullardan foydalanishi va ko'proq o'quvchilarni qiziqishini ortishi maqsad qilib olingan.Noan'anaviy usullardan foydalanish asosan o'quvchilarni bilim savyasini oshiradi, duyo qarashini kengaytiradi, dars samaradorligini oshiradi.Maktablarda anashunday noan'anaviy usullardan foydalanish yaxshi samara beradi .Nafaqat maktablarda ,balki kollej liseylarda qo'llash mumkin. Men dars ishlanmalarimda asosan noan'anaviy usullar orqali o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishigaharakat qildim.

II bobning xulosasi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, mehnat ta'limi bo'yicha davlat ta'lim standartida umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'lim va kasb tanlashga yo'naltirishning tayanch mazmuni hamda maktabni bitirgan o'quvchilarning mehnat ta'limi fanidan tayorgarlik darajasi ifodalanadi. Ushbu standart umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun mehnat ta'limi fanidan o'quv dasturi, o'quv metodik qo'llanma, darslik va boshqa rasmiy me'yoriy materiallarni ishlab chiqish, o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish hamda ilmiy tadqiqotlar olib boorish uchun zarur bo'lgan me'yoriy hujjatlar haqida ma'lumotlar kiritilgan. Yana bunga qo'shimcha dars ishlanmalarida noan'anaviy usullardan foydalanish undan foydalanganda o'quvchilarning qanchalik qiziqishini ortirishini, bilimni rivojlantirishni yoritib berishga harakat qildim.

Xotima

Bitiruv malakaviy ishimni yozish mobaynida shunday xulosaga keldimki davlatimiz tomonidan ta'lim tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan bir qancha qarorlari ta'limga berilayotgan yuksak e'tibor namunasidir.

Bitiruv malakaviy ishimning „7- sinf mehnat ta'limi darslarini uslubiy ishlanmasi“ mavzusini oldim. Shu mavzuga oid reja tuzdim va bitiruv malakaviy ishimga kiritdim. O'quvchilarni kasb hunarga o'rgatishda mehnat ta'limi darslarini ahamiyati katta shuning uchun mehnat ta'limi darslarining samaradorligini va sifatini oshirish davr talabi bo'lib qolmoqda. Shuning uchun bitiruv malakaviy ishimning mavzusini 7- sinf darslarini uslubiy ishlanmasideb oldim. 7-sinflarning „Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi“ ni yo'nalishini tanladim. Chunki o'zim tikuvchilik ishlari bilan ham shug'ullanaman. Avvalo 7- sinflarning „Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi“ yo'nalishining ish dasturini aniqlab oldim va shu asosda dars ishlanmalarini tayorlashni boshladim. Mavjud barcha adabiyotlardan foydalanib, ma'lumot to'pladim.

Bitiruv malakaviy ishimni 2 bob va 4ta rejada yoritib ochib berdim. Kirish qismida ta'lim to'g'risidagi qonun va adabiyotlar tahlilideb nomladim. Bunda ta'lim to'g'risidagi va mavzuga oid metodik adabiyotlar tahlili hamda bitiruv malakaviy ishimni dolzarbligi, maqsadi va vazifalarini keng yoritib ochib berdim. Ta'lim to'g'risidagi qonunga alohida e'tibor qaratib chuquroq tahlil qilishga harakat qildim. Yana mavzuga oid metodik adabiyotlar tahlil qildim. Unda mavzuga doir O'zbekiston Respublikasi prezidentining „Barkamol avlod yili“ davlat dasturi to'g'risida qarorlari, Ismoil Karimov, K. Davlatov, A. Varobiyevlarni, „mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi“ kitoblarini va yana bir qancha jurnal maqolalaridan tahlil qilib kiritdim. So'ng bitiruv malakaviy ishimning dolzarbligi va maqsad va vazifalarini yoritib berdim.

II bobni esa 7-sinf mehnat ta'limi darslarini uslubiy ishlanmasi deb nomladim. Unda 7-sinf mehnat ta'limi faning „Gazlamaga ishlov berish“ yo'nalishining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi tahlili hamda 7-sinf „Gazlamaga ishlov berish“ yo'nalishining mavzular bo'yicha dars ishlanmalarini keng yoritib ochib berdim. Bunda ham davlat ta'lim standartiga va o'quv dasturiga alohida e'tibor qaratdim. chunki biz bo'lajak o'qituvchilar o'qituvchilik faoliyatini yurtimizda bevosita DTS ga va o'quv dasturiga tayangan holda yurtimizni bilib oldim va shuning uchun ham kengroq yoritib berishga harakat qildim.

7- sinf „Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi“ yo'nalishining mavzular bo'yicha dars ishlanmalarini bir nechasini tuzib bitiruv malakaviy ishimga kiritdim. Unda gazlamalarni bichish va qirqish asboblari va moslamalardan foydalanishni har turli materiallarni tuzilishi va ularni ishlatish, tikuvchilik, gazlama tayorlash, uni bo'yash va gul bosish sohalaridagi milliy hunarmandchilik kasblarining 2-3 tasiga doir asosiy usullarni bilish, ayrim tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash, chizma andoza tayorlash, bichish, tikish, pardozlash hamda sifatini aniqlash ishlarini bajarish, qo'l ishlari, qo'l iashlari uchun ish o'rnini tashkil qilish, elektr privodli tikuv mashinalarini tuzilishi, ishlatilishida xavfsizlik texnika qoidalariva sanitariya gigiyena qoidalari, mashinada bajariladigan ishlarni texnik shartlari, mashinada

bajariladigan ishlar uchun asbobva moslamalar, tikuv mashinalarini tozalash va moylash, mashinadagi nuqsonlar va yana bir qancha shunga o'xshash kerakli ma'lumotlarni kiritdim.

Xulosa qilib aytamanki kelajagdagi pedagogic faoliyatimda barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berishda o'rta kasb hunarga yo'naltirishda ularning qiziqishlarini fikrlash doirasini yanada kengaytirishni maqsad qilib qo'ydim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov.I.A „Yuksak manaviyat- yengilmas kuch”T.2008 yil
2. Kaimov I.A „Barkamol avlod orzusi” T „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi “ 2000 yil 245 bet
3. Karimov I.A „O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyoti yo'li” T.O'zbekiston 1992 yil 17-24 betlar
4. Karimov I.A „Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”T.Sharq 1999 yil 2-10 bet
5. Ta'lim to'g'risidagi qonun 1997-yil
6. I.G'.Karimov ,A.I Varobiyov ,S.A Lumanskiy „Mehnat ta'limi 7-sinf” T O'qituvchi .1992-yil
7. I.G'.Karimov „kasb tanlashga yo'llash “Buxoro 2007-yil
8. I.G'.Karimov „Mutaxassisga kirish “BUxoro 2007-yil
9. I.I.Rahmatov, Bekchayeva.F,Odilova M „Mehnat ta'limi “Buxoro 2009-yil
10. I.R.Rahmatullayeva „Kasb ta'limi praktikumi”fanidan uslubiy qo'llanma Buxoro 2008 –yil
11. „Xalq talimi”jurnalari 2006-2009-yillar
12. „Kasb-hunar ta'limi “jurnalari 2006-2009-yil
13. N.Gayipova,M.Tursunxo'jayeva,Q.Abdullayeva,X.Boboxonova „Tikuvchilik texnologiyasi va jihozlari “T.Voris nashriyoti 2007-yil 188-191 bet
14. Y.P.Malstova „Tikuvchilik materialshunosligi”1986-yil 17-28 bet
15. Poshshoxo'jayeva „7-sinf mehnat ta'limi “T 1997-yil
16. I.Karimov, K.Davlatov „mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi”)asosiy detal rangiga
17. T,M.Poshshoxo'jayeva ,S.Po'latova „Xizmat ko'rsatish mehnati”T. o'qituvchi 1992-yil
18. Turxanova „Yengil kiyimlar texnologiyasi”
19. K.Olimov „Tikuv korxonasi jihozlari va uskunalari “
20. N.R.Rahmatullayeva,L.Haydarova,F.Akramova,E.R.Usmonova ,I.I.Narziyeva „Kasb ta'limi praktikumi fanidan uslubiy qo'llanma Buxoro 2008-yil 29 30 bet
21. I.Rahmatov „Mehnat ta'limi “Buxoro 2007-yil
22. M.Sh .Jaborova „Tikuvchilik texnologiyasi”T 1989 -yil